

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.U.Nurmatova	
Yusuf Hamadoniy- tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi, mutasavvuf olim	428
S.Q.Qaxxorova	
Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirish ularni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash istiqbollari.....	432
A.E.To'liqinov	
Janubiy Farg'ona kanali suvining tabiiy-geografik tavsifi	437
Sh.T.Abbosova	
Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari	442
M.Мирзарахим	
Роль педагогических стратегий в интеграции искусственного интеллекта.....	448
B.A.Talapov	
Yangi O'zbekistonda inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi	454
Z.Y.Adilov	
Mahmud Az-Zamaxshariy ma'naviy merosining falsafiy tahlili	459
D.D.Boymirzayeva	
Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish va uning tashkiliy-boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash.....	464
I.I.Soliyev	
Oliy ta'lim muassasalarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari	468
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyong'o'shti aminokislota tarkibini o'rganish.....	472
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyong'o'shimcha mahsulotlarining mineral tarkibini o'rganish.....	477
O.O.Isaqov	
Talabalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik tashxisi	483



UO'K: 297.46(091)

**YUSUF HAMADONIY- TASAVVUF TA'LIMOTINING YIRIK NAMOYANDASI,
MUTASAVVUF OLIM****ЮСУФ ХАМАДАНИ – ВЫДАЮЩИЙСЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ СУФИЙСКОГО УЧЕНИЯ,
СУФИЙСКИЙ УЧЕНЫЙ****YUSUF HAMADANI - A GREAT REPRESENTATIVE OF THE TEACHING OF SUFIS, A
SUFIST SCIENTIST****Nurmatova Nigora Umarovna** Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, "Ijtimoiy fanlar va jismoniy
madaniyat" kafedrası dotsenti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Yusuf Hamadoniyning tasavvuf ta'limotiga qo'shgan hissasi, tasavvuf ta'limotining tub mohiyati yoritilib, ilmiy va diniy adabiyotlarda turlicha ta'rif berilganligi uqtirilib, tasavvuf g'oyalariga ilm sifatida, harakat sifatida, "ta'limot" sifatidagi berilgan ta'riflarning mazmuni yoritilgan, shuningdek tasavvufga diniy-pedagogik ta'limot sifatida qarash lozimligi to'g'risida xulosa berilgan.

Аннотация

В данной статье освещен вклад Юсуфа Хамадани в учение суфизма, фундаментальность учения суфизма, приведены различные определения в научной и религиозной литературе, содержание определений, данных идеям суфизма как науки. Выделено, как движение, как «учение», а также сделан вывод о том, что суфизм следует рассматривать как религиозно-педагогическое учение.

Abstract

This article highlights Yusuf Hamadoni's contribution to the doctrine of Sufism, the fundamental essence of the doctrine of Sufism, and the various definitions given in scientific and religious literature. It also highlights the content of the definitions given to the ideas of Sufism as a science, as a movement, and as a "teaching," and concludes that Sufism should be viewed as a religious and pedagogical doctrine.

Kalit so'zlar: Yusuf Hamadoni, Islom madaniyati, Qur'on va Hadislar, tasavvuf, inson qalbi va ruhiyatini, axloqini poklash, tasavvuf ilm sifatida, tasavvuf harakat sifatida, tasavvuf "ta'limot" sifatida, shariat qoidalari, tasavvuf - diniy-pedagogik ta'limot.

Ключевые слова: Yusuf Hamadoni, Исламская культура, Коран и хадисы, суфизм, очищение сердца и души человека, нравственность, суфизм как наука, суфизм как действие, суфизм как «учение», нормы шариата, суфизм как религиозно-педагогическое учение.

Key words: Yusuf Hamadoni, Islamic culture, Koran and Hadis, Sufism, open mind to human nature, morality, Sufism as science, Sufism as practice, Sufism as "teaching", Sharia norms, Sufism as religio-pedagogical teaching.

KIRISH

Islom madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan tasavvuf islom musulmon Sharqi mamlakatlarida falsafa, axloq, madaniyatni targ'ib etishga, Qur'on va Hadislarning mohiyatini ochib berishga, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga intilgan insonparvar va halqsevar ta'limot sifatida VIII asr o'rtalaridan boshlab o'z nazariyasi va amaliyoti, ilm sifatida shakllandi va rivojlandi.

Yusuf Hamadoni (1048-yil 17-iyul, Buzanjird qishlog'i, Hamadon – 1140-yil 13-sentabr, Bomiyon)-tasavvufning yirik namoyandasi, olim. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar unchalik ko'p emas. Abduxoliq G'ijduvoni, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlarida Yusuf Hamadoni haqida ma'lumotlar bor. To'liq ismi – Yusuf ibn Ya'qub ibn Abdubohid ibn Abdubosit ibn Zamzam ibn Boqir ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Abu Xanifa No'mon ibn Sobit. Tasavvufning tub mohiyati inson qalbi va ruhiyatini, axloqini poklash, shaxsiy hayotda halol yashash, zahiran va

botinan pok bo'lish, pok qalb va ruh kuchi bilan Alloh visoliga yetishga kishilarni targ'ib-tashviqot etishdan iboratdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yusuf Hamadoniy tasavvufga oid "Rutbat ul-hayot" ("Hayot mezon"), "Kashf", "Risola dar odobi tariqat" ("Tariqat odobi haqida risola"), "Risola dar axloq va munojot" ("Axloq va munojot haqida risola"), "Risola fi annal kavna musaxxarun lil inson" ("Dunyoning insonni taslim qilishi haqida risola") asarlarini yozgan. Alisher Navoiyning hikoyatlarida Yusuf Hamadoniyning yana "Ziynat ul-hayot", "Manozil us-solikin" va "Manozil ul-soirin" nomli asarlari bo'lgani haqida aytib o'tilgan.

"Rutbat ul-hayot" ("Hayot mezon") risolasini Sayfiddin Rafiddinov o'zbekchaga o'girib, 2003-yilda nashr qildirgan. "Kashf" risolasi topilmagan.

Birinchidan, tasavvuf ta'limot sifatida g'oyat murakkab va ko'pqirrali ijtimoiy-ma'anaviy hodisa bo'lib, uning murakkabligi va ko'pqirraliligi tasavvufiy yo'nalishlarning turli tumanligidan, metod-uslublarining rang-barangligida, bilish obyektining tadqiqot va targ'ibot qilgan masalalar doirasining qamrovi juda kengligi, xilma-xilligi va teranligida ifodalanadi. Ikkinchidan, mazmunan va mohiyatan inson qalbini poklashga qaratilgani, jaholat va xudbinlikka qarshi bo'lgani, mehru shafqat, himmat va mardlik ko'rsatishni targ'ibot etgani, Allohga bo'lgan ishqni birinchi o'ringa chiqargani, ilohiyot yo'lida dunyodan yuz o'girishini, jismni shu yo'lda qurbon etishni da'vat etgani sababli ham tasavvuf azal-azaldan ilmu ijod ahliga yaqin bo'lgan. N.Komilov ta'kidlaganidek: "...tasavvuf garchi islom ta'limoti hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda lekin shu diniy aqidaparastlik va mutanosiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu ishratga g'arq turmush tarzi, talonchilik va maishatparastlikka zid o'laroq mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Ushbu ta'limotning el orasiga yoyilib, fikriy yangilanishlarga qanot bergani, haq va haqiqatga tashna ziyolilar yuragini band etganining sababi shu. Qolaversa, tasavvufning ayni shahar hunarmandlari, qadimdan madaniyati rivojlanib kelgan ilm-ma'rifat markazlarida taraqqiy etgani ham bejiz emas". Tasavvuf ta'limotining mazmun va mohiyatini tushunib yetmoq uchun olimu fuzalolarning tasavvufga bergan ta'riflaridan xabardor bo'lmoq lozim. Ilmiy va diniy adabiyotlarda tasavvuf tushunchasi turlicha ta'riflanadi.

1. Tasavvuf g'oyalarining ilm sifatida ta'riflanishi: tasavvuf – insonning ruhiyati va ma'naviy olamidagi jarayon bo'lib, uni aqliy hamda axloqiy kamolotga yetkazuvchi ilmdir. Bunda bir qator fikrlar ilgari suriladi. Xususan, "Tasavvuf va tariqat" masalasi o'tmishdagi kabi bugungi kunda ham ko'p bahslarga sabab bo'lgan mavzulardan biridir. Uning o'ziga xos ilm sohasi, amaliy, nazariy, ruhiy va tajribaviy xususiyatlari mavjud. Jumladan, turk olimlaridan Komil Yilmas bu haqida shunday fikr bildiradi: 1) tasavvuf – tajriba orqali his qilib, yashab, anglashiladigan xos ilmdir; 2) tasavvuf amalda qo'llanadigan bir ilm bo'lgandan murshid yoki shayx (ustoz) huzurida va uning tarbiyasi ostida o'rganiladi; 3) tasavvuf ilmining mavzusi ma'rifotullohdur; 4) tasavvuf – sirlarini o'rgangan murshid yoki shayx (ustoz) hazrati Payg'ambarimizga ulanib, uzilib qolmagan bir silsilaga sohib bo'lish kerakdir; 5) tasavvuf kitobiy bir ilm emas, ya'ni, biror kishi tasavvufga doir yozilgan kitoblarini o'qib, (pir va uning ko'rsatmasini bajarmasdan), shayx va sufiy bo'la olmaydi; 6) tasavvuf movaroi aql (aqldan ustun) bir ilmdir; 7) tasavvuf ko'z bilan ko'radigan bu shahodat va nosud (biz ko'rmaydigan) olamdan tashqari ham har zamon G'arb bahs etadi; 8) tasavvufga tariqat deb atalgan va Allohga yetkazadigan o'ziga xos yo'llar kiradi. Ibn Arabiy Fahriddin Roziyning "Tavsira qabr"i munosabati bilan yozgan maktubida o'qib o'rganiladigan ilmdan tashqari, Allohdan keladigan ilm, ilhom, kashfu hollar borligini va bu ilm, asosan, tariqat yo'li bilan qo'lga kiritilishini ta'kidlaydi. Abdulvoriy Nadviy shunday fikr bildiradi: "Tasavvuf ruhni badaniy foneliklardan poklab, bezak va botiniy sifatlarida Janobiy Payg'ambarimizga ergashishni o'rgatuvchi ilmdir". Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'rta asr mutasavviflari tasavvufni o'z dunyoqarashlariga mos holatda ta'riflaganlar. Chunki, tasavvuf har bir mutasavvifning ichki olamidagi ruhiy jarayon bo'lib, uning yashash joyi va zakovatiga taalluqli shaxsiy bir sohadir. Shu bois, har bir mutasavvif o'zining zehn – zakovatiga ko'ra, tasavvufning ma'lum jihatini bayon etganki, birining tasavvuf haqidagi ta'rifi boshqasidan farqlidir. Darhaqiqat, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib ta'riflaganda, tasavvuf inson qalbidagi yomon sifatlardan xalos bo'lish choralarini o'rgatuvchi, qalbdagi ezgu sifatlar va ularni qo'lga kiritish yo'llarini ko'rsatuvchi, ma'naviy martabalarni bosib o'tib, eng yuksak martaba –

“komil inson” maqomiga erishmoq qoidalarini o’rgatuvchi nihoyat, tavhid sirlarini bayon etuvchi bir ilmdir.

2. Tasavvuf g’oyalarining harakat sifatida ta’riflanishi: “Tasavvuf haqiqatlarni qabul etmoq, insonlarning qo’llaridagi narsalarga ko’ngil bog’lamaslikdir” (Ma’ruf Karhiy); “Tasavvuf go’zal axloqdir” (Sirri Saqatiy); “Tasavvuf amr va nahy ostida sabr qilmoqdir” (Abu Amr Ismoil ibn Junaid); “Tasavvuf aqlingdagi barcha o’y – harakatlarni tark etishning, qo’lingdagi narsalarni ehson qilishning va senga ro’para kelgan voqea – hodisalardan oh-voh chekmasligingdir” (Abu Said ibn Abil Hayir); “Tasavvuf batamom azobdan iborat” (Abul Hafis – al Haddot), “Nafs lazzatlaridan voz kechish” (Shayx Nuriy); “Nafs manzillarini bosib o’tish” (Shayx Safiy Alim Shoh); “Xudo yo’lida nafsdan kechmoq” (Shayx Ravim); “Yaxshi va oliy xulqqa kirish va past xulqdan chiqishdir” (Shayx Hariri); “Tasavvuf ikki ishdir: biri Alloh buyurgandek to’g’ri yurmoq, ikkinchisi – noshariy ishlarda boshqalardan ajralmoq. Kimki Alloh buyurganini to’liq ado etsa, yurish turishi, xulqi, odamlar bilan muammosi yumshoq va chiroyli bo’lsa, o’sha zotni sufiy deyish mumkin”. Demak, tasavvuf o’z jozibasi, ahamiyati bilan muhimdir. U tarbiyaviy jihatdan insonning ichki dunyosini teranlashtirish va poklashga taalluqli bo’lgani uchun muhimdir. Bu ta’riflarda u yoki bu darajada juz’iy tafovutlar mavjud bo’lsada, tasavvufning mohiyati, uning ma’naviy ahamiyati atroflicha ifodalangan. Demak, bu dunyo bor ekan, insoniyat bilan birga tasavvuf ham bor. Tasavvuf g’oyalarining “tariq” ya’ni “yo’l” sifatida ta’riflanishi bunday ulug’ mutafakkir Alisher Navoiy qalamiga mansubdir. Uning “Favoyid ul-kibor” asarida quyidagicha fikr bayon qilinadi: “Xilofu ixtilofi bo’lmagan zuhd, toat emas, riyosiz, sof tavhidga eltuvchi yo’l”. Mahmud As’ad Jo’shon ta’rifiga ko’ra “Tasavvuf favqulodda yuksak darajadagi yo’l bo’lib, unda shaxs barkamol inson darajasiga ko’tariladi” yoki “dinimizning o’zagi, negizi va uning haqiqiy ma’nosi, komil inson bo’lish yo’lidir” degan ma’noni bildiradi.

Tasavvuf g’oyalarining “ta’limot” sifatida ta’riflanishi. Husayn Voiz Koshifiy tasavvuf tushunchasini quyidagicha talqin etadi: “t” – tajriba, ya’ni, ortiqcha narsalardan xoli bo’lish (qolish), behuda ishlardan chetlanish, “s” – sidqu safo, “v” – vafo, “f” – fano.

Agar tasavvuf nimadir deb so’rasalar aytginki, – deydi Koshifiy, – bu savolga berilgan javoblar bir qancha. Birinchidan, tasavvufning tahliya, ya’ni xoli bo’lmoq, qalbni bo’shatmoq va yaxshi maqtalغان axloqdir, deydilar. Ikkinchidan, tasavvuf tavsiya, ya’ni ruhni ag’yor-begonadan tozalashdir, deb aytadilar. Uchinchidan, tasavvuf xuzu’, ya’ni nafsni jilovlash, xokisorlik va jonsiporlik namunasini ko’rsatishdir, deydilar. To’rtinchidan, tasavvuf da’voni tark etish va ma’nolarni xalqdan yashirishdir deguvchilar bor. Beshinchidan, tasavvufni (yana) ibodat husniga ishorat, deb ta’riflaydilar. Oltinchidan, tasavvuf nafsni xor tutish va amrni aziz tutishdir deydilar. Ettinchidan, tasavvuf barcha uchun adabdir va kimki faqir (darveshlik) odobini biriga o’zini vobasta etmasa, tasavvufdan faqat nomgina bo’ladi, xolos deydilar.....”

Yusuf Hamadoniyy etikdo’zlik kasbi bilan mashg’ul bo’lgan. Dehqonchilik ham qilga.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy tazkiralarda Yusuf Hamadoniyy ko’p vaqt Marvda yashagani va u yerdan Hirotga 2 marta kelib bir necha muddat turgani haqida yozilgan. U 1140-yili Hirotidan Marvga qaytib ketayotgan mahali yo’lda vafot etadi. Manbalarda Bomiyon Yusuf Hamadoniyy vafot etgan joy sifatida ko’rsatiladi. Oradan bir qancha vaqt o’tib, Yusuf Hamadoniyyning xoki yoki jasadi Marvga keltirilib dafn qilinadi. O’sha paytlarda bu maskan el orasida mashhur bo’lgan. Yusuf Hamadoniyyning qabri saqlanib qolgan

XULOSA

Yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirib, tasavvufga diniy-pedagogik ta’limot sifatida qarab, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: “Tasavvuf – diniy-pedagogik xususiyatga ega bo’lgan ilm-ta’limot bo’lib, insonning ma’naviy kamolotiga, barkamol inson bo’lishiga oid diniy – pedagogik bilimlarni (nafs tarbiyasi, ruh tarbiyasi, aqliy tarbiya) o’z ichiga oladi va insonni o’z-o’zini boshqarishga o’rgatadi”. Bu g’oya yosh avlodning ma’nan yetuk, jismonan salomat, barkamol inson bo’lib yetishishida ustuvor vositalardan bo’lib hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlarining Islom va tasavvuf ilmi allomalarining asrlar davomida insonlarni eng ulug’ maqsadlar yo’lida birlashishiga, hamjihat bo’lishga chaqirgan g’oyalari mustaqil O’zbekiston taraqqiyoti uchun ijobiy ta’sir etmoqda.

Tasavvuf ta’limotiga ko’ra, borliqdagi hamma mavjudotda, jumladan, insonda ham ilohiy zarralar mavjud. Ta’kidlashlaricha, Qur’on va Hadislarda belgilangan qonun-qoida va maqomlarni izchil suratda o’zlashtirish va amalga oshirish, ya’ni Allohning yakkaligi va borligiga imyon

ILMIY AXBOROT

keltirmoq, Alloh taoloni idrok qilmoq va uning vasliga yetmoq uchun bir qancha maqom va manzillar mavjud: birinchi bosqich – shariat: diniy rasm-rusumlarni, shariat qoidalari va hukmlarini amalda qo'llash, Alloh taologa ibodat qilish bilan belgilanadi. Tasavvufchilar uchun shariat asl maqsadga – haqiqat holatiga, ya'ni Alloh taolo rahmatiga yetishishi uchun bevosita, "zinapoya" hisoblanadi. Demak, Allohni aqlu idrok bilan tanimasdan, shariat talablarini bajarmasdan tariqatga o'tish mumkin emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. - Т.: "Янги аср авлоди". 2003.
2. Jumanazar A. K. Qoratosh. Toshkent: Akadem nashr, 2022 - 512-bet.
3. Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний (Рисолаи соҳибия)* Васиятнома.Т.: "Movarounnahr", 2018.
4. Наврӯзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Т.: "Фан", 2005 й.,
5. Г.Наврӯзова, Н.Нурматова. Юсуф Ҳамадоний – етти пирнинг табаррук устози. Т.: "MASHHUR-PRESS", 2016.
6. Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони (Рутбат ул-ҳаёт). Одоб тарикат. Коинот ва инсон. Т.:O'zbekiston musulmonlari idorasi "MOVAROUNNAHR", 2018.
7. Фахрулдин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт.Т.: "Абу Али Ибн Сино", 2004.
8. Н.У.Нурматова. Миллий меросимизда "хуш дар дам" рашҳаси. "Аҳмад ибн Ҳафс Кабир Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ Ренессанси ҳамда ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти" мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман тўплами. Бухоро, 2022 йил 16-17 июнь. 290-293 betlar.
9. N.U.Nurmatova, N. Safoyev. Yusuf Hamadoni va Buxoro. Zamonaviy oliy ta'lim: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya. Navoiy, 2022 yil, 22 noyabr. 24-27 betlar
10. Н.У.Нурматова. Юсуф Ҳамадоний ва хожгон - нақшбандия таълимотининг "назар бар қадам" рашҳаси. Zamonaviy oliy ta'lim: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya. Navoiy, 2022 yil 22 noyabr. 30-31 betlar.
11. N.U.Nurmatova. Four basis analysis of human perfection in the work of Yusuf Khamadani, Odoobi tariqat./ International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. [issn no.2394-3696, 141-143 p.](#) Volume: 7 Issue: 4 , aprel 2020. 141-143 p.
12. N.U.Nurmatova. Jadidism is the spiritual basis of modern great change practice.Eprainternational journal of Multidisciplinary Research monthly peer reviewed & indexed international online journal Volume: 6 Issue: 11 november 2020. 396-398 p.
13. N.U.Nurmatova. Logical analysis of Abdulkhalik Gijduvani's work "Maqomoti Yusuf Hamadoni"/ ISSN (Online): 2455-3662 EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 7| Issue: 9| September 2021|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2021: 8.047 || ISI Value: 1.188 . p 417-420